

ISSN 2181-922X

# **O‘ZBEKISTON**

**TIL VA MADANIYAT**

# **UZBEKISTAN**

**LANGUAGE AND CULTURE**

2022 Vol. 2

[www.navoiy-uni.uz](http://www.navoiy-uni.uz)  
[www.uzlc.navoiy-uni.uz](http://www.uzlc.navoiy-uni.uz)

## MUNDARIJA

### Lingvistika

#### **Yorqinjon Odilov**

Jamiyat, til va madaniyat.....6

#### **Muhayyo Hakimova**

O'zbek tilida "holat" ma'noli abstrakt nomlar.....18

#### **Мехмет Джан**

Прошлое и настоящее алфавитов, используемых в  
тюркских республиках.....31

#### **Surayyo Ziyotova**

"Mehrobdan chayon" da ifodalangan ijtimoiy-siyosiy leksikalar.....44

### Adabiyotshunoslik. Tarjimashunoslik

#### **Bahodir Karimov**

O'zbek jadid nasri va Abdulla Qodiriy.....61

#### **Marg'uba Abdullayeva**

Paremik janrlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari  
(tarixiy-nasriy asarlar misolida).....71

#### **Nodira Egamqulova**

Turkistonda milliy matbuot, adabiyot va adabiy til.....88

### Din. Falsafa. Ilohiyot

#### **Bahriddin Umurzoqov**

"Rashahot" asarida Xojagon tariqati asoslari bayoni.....118

## Paremik janrlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari

(*tarixiy-nasriy asarlar misolida*)

Marg'uba Abdullayeva<sup>1</sup>

### Abstrakt

Maqolada tarixiy-nasriy asarlarda uchraydigan paremik janrlar—maqol, hikmat, o'git, masal, naqlarning turli ko'rinishlari tahlilga tortilgan. Xalq og'zaki ijodi janrlarining yozma adabiyotga ko'chishi, undagi o'zgarishlar, janrlar takomili kabi masalalar tadqiq etilgan. Mirzo Ulug'bekning "To'rt ulus tarixi" ("Ulushi arba'i Chingiziy") va Abulg'ozi Bahodirxonning "Shajarayi turk" asarlarida uchraydigan paremiyalarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari yoritiladi. Asar mualliflarining xalq naqllari, hikmatli so'zlaridan mahorat bilan foydalanganligi ilmiy asoslab beriladi. Xalq o'g'itlari tarixiy shaxslar faoliyati bilan bog'liqligi, hikmatlar aynan tarixiy qahramon tilidan aytilganligi dalillangan. Pand-nasihatarakteridagi paremiyalarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari, tarbiyaviy ahamiyati ochib beriladi. Paremik turga xos janrlarda aqliy bilishning ustunligi, xalqning uzoq hayotiy tajribasi asosida yuzaga kelishi kabi xususiyatlari aniqlangan. Maqolada mavzuga oid tadqiqotlarga munosabat bildirilib, qiyosiy tahlillar amalga oshirilgan.

**Kalit so'zlar:** *paremologiya, maqol, naql, hikmat, o'git, masal, hikmatli so'zlar, "To'rt ulus tarixi", "Shajarayi turk", tahlil, g'oya, badiiy mahorat, tarbiyaviy ahamiyat.*

### Kirish

Paremiologiya xalq donoligini o'rganuvchi fandır. Paremiya deb tilda barqaror bo'lgan, nutqda sintaktik jihatdan gap shaklida keluvchi, pand-nasihatar, ta'limiy mazmunni yetkazish uchun qo'llanuvchi birikmalarga aytiladi [6]. Adabiyotshunoslikda to'rtinchi adabiy tur "paremiya" to'g'risida B.Sarimsoqov matbuotda bir qancha chiqishlar qilgan edi. Olimning "Adabiy turlar haqida mulohazalar",

<sup>1</sup>*Abdullayeva Marg'uba Dusmiratovna* – filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

**E-pochta:** margubaabdullayeva507@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0003-2088-6040

**Iqtibos uchun:** Abdullayeva M. 2022. "Paremik janrlarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlari". *O'zbekiston: til va madaniyat* 2: 71–87.

“Paremik kechinma tabiati” nomli maqolalari shular jumlasidandir. B.Sarimsoqov paremik tur tabiati haqida gapirib, “badiiy kechinmaning bu shakli yuqoridagi uch adabiy turga xos kechinmadan o‘zining barqaror tabiati va tarkibida hissiy nisbatga qaraganda aqliy nisbatning ustunligi bilan farqlanib turishini” [17] ta’kidlagan. Chunki maqol va matal, topishmoq va aforizmlar voqea-hodisalarning o‘zini emas, balki ular haqidagi fikr va xulosalarni ixcham shaklda yaxlit, lo‘nda ifodalaydi. Shundan kelib chiqib, olim paremik turga maqol, matal va topishmoq bilan bir qatorda yozma adabiyotdagi aforizmlar, obrazli ifodalar, qanotli so‘zlar, aniq ifodalar, mantiqiy va g‘ayrimantiqiy iboralar, ta’rix, muammo va fardlarni kiritadi. Bu tur tarkibiga kiruvchi janrlar umuminsoniy ahamiyatga ega bo‘lgan favqulodda dono fikrlar obrazli ifoda etilishi bilan ajralib turadi. Tarixiy asarlarda ham masal (maqol), o‘git, hikmat, iboralar, otalar so‘zi orqali badiiy talqin etilgan.

### **Naql paremik janr sifatida**

Paremik janrlarni maqollar misolida tadqiq etgan M.Temirova o‘zbek va qirg‘iz maqollarini qiyosiy o‘rganadi [19; 17]. Bu janrning turli davrlarda turlicha nomlar bilan atalganini aniqlaydi. Naql atamasi O‘rta Osiyo xalqlari orasida qadimdan mavjud bo‘lib, turli xil ma’nolarni anglatgan. Dastlab, folklorning ayrim janrlari shu nom bilan yuritilgan. U adabiy jarayonda yuz berib, turkiy xalqlar madaniyati, axloq falsafasi zahirida paydo bo‘lgan. “Zarbulmasal” arabcha so‘z bo‘lib, aybdorni masal bilan urmoq (tanqid qilmoq)ni anglatadi. Muhammad Jobalrudi (XVII asr) bu so‘zni masal va tamsilning sinonimlari sifatida qo‘llagan, boshqa o‘rinda uni ramzli hikoya ma’nosida keltirgan [20; 260]. “G‘iyos ul-lug‘at”da uni nutqda u yoki bu ko‘chma ma’noni tashuvchi, deb ko‘rsatilgan. O‘zbek xalq nasrida esa masal naql atalgan. Zarbulmasal dastlab yozma adabiyotning alohida janri bo‘lgan. “To‘rt ulus tarixi” asarida O‘g‘uzxonning xotinlariga munosabati, kichik xotinini sevishi va bundan avvalgi xotinlarining rashk alangasida kuyishi bilan bog‘liq voqealar xalq ichida zarbulmasalga aylangani aytiladi [11; 44] Zarbulmasal deyilganda, O‘g‘uzxon va uning xotinlari to‘g‘risidagi hikoyatlar nazarda tutilgan. Keyinchalik, u masal atamasi bilan yuritilgan. Naql rus folklorida “pritcha”, forslarda naql masal, maqol [8; 744], tojik tilida u ertak, matal, masalni bildiradi [18]. Turkman tilida naql topishmoq [18; 219], qozoq va qirg‘iz tillarida metel [10; 550] deb yuritiladi. Turkiy xalqlar folklorida turli xil janrlarga mansub asarlar naql atalgan. Ayniqsa, qadimgi yodnoma, xalq kitoblari, qo‘lyozmalarda

berilgan afsona, rivoyat, doston, maqol, matal va hatto, topishmoqni ham naql atash hollari uchrab turadi [9; 214]. Shuning uchun bo'lsa kerak, Ozarbayjonda ertak naql [4; 260] deb yuritiladi. Naql og'zaki hikoyani anglatadi [13; 105]. Naql arabcha so'z bo'lib, uch xil ma'noni bildiradi: birinchisi, harakat, ko'chish, ya'ni ko'chma ma'noni voqea va hodisalar shu nomlar bilan atalgan. Ikkinchisi, voqeani bayon qilish, hikoya qilish; uchinchisi, og'zaki nasriy turning alohida janrlari, qissa, ertak, matal bir butun holda naql deb yuritilgan [5]. Naql asosan hikmatli fikr, o'gitlar majmui. Binobarin, naql hayotiy voqea va hodisalardan falsafiy umumlashmalar yaratib, majoziy yo'l bilan ibratli xulq, muomalani bayon etuvchi hikoyadir. Demak, naql aql, odob, donolikni ulug'lab, anglash va baholash imkonini beradi. Bu janrda aqliy nisbat ustun bo'lib, hayotiy tajriba asosida xissa-xulosa chiqariladi.

O'zbek mumtoz adabiyoti hamda xalq og'zaki ijodi asarlarida noqil va naql atamasi juda ko'p uchraydi. Biri aytuvchi, bayon etuvchi, yana biri hikoya ma'nosini anglatadi. Dastlab, qissa, maqol, ertak, matal, topishmoq, dostonlar ham naql deb yuritilgan. Noqil o'rnak olsa arziydigan axloq, odob normalari haqida hikoya qiluvchini bildiradi. Naqliy asarlar asosan ta'limiy-estetik funksiyani ado etadi [9; 216].

### **Tadqiqot natijalari**

“To'rt ulus tarixi” va “Shajarayi turk”da xalq naqlaridan samarali foydalanilgan. Qoraxonning o'g'li O'g'uzxon musulmonlikni qabul qilganida, otasi hayratda qolib, “O'g'uzxon jonimdan aziz bo'lsa ham, o'tkir shamshir bilan ishini qilurman. Dinu urfimdan qaytgan ekan, xanjar bilan boshini kesmoq lozim”, – dedi. Voqea nazmda berilgan bo'lib, undan chiqariladigan naql quyidagicha: “*Otasi dinidan kechgan o'g'ulning dilini kiyna tig'i bilan tilmoq lozim*” [11; 45]. O'ngxonning Tayangxon nayman qo'lida nobud bo'lishi tasvirlangan she'rda ham “*Dunyoning ishi shu: goh senga sut tutadi, gohida – qon. Podshoh yoki lashkar bo'lmagin, ajaldan qutulolmaysan*” [11; 90]. “*Gumon ahlidek so'z o'g'risi bo'lma*” [11; 100]. Naql paremik xususiyatga ega bo'lib, yirik voqealarni ibratli xulosalaydi. O'z o'rnida kichik xulosa katta voqealarga ishora qiladi. Mirzo Ulug'bek janrning ayni jihatlari nazarida tutib, voqealarning xalqchilligini ta'minlashga erishadi. Bunday yondashuv muallif badiiy mahoratini ko'rsatishi bilan birga, o'sha davr xalq og'zaki ijodi boyligini o'zida ifoda etadi.

Mirzo Ulug'bek asarida “*naql*” so'zini bir necha o'rinlarda tilga olib o'tadi. Biroq naqlni to'laligicha bayon etmaydi. Voqealar

bayoni jarayonida naqlda keltirilgan ma'lumotni asoslash va xabar yetkazish maqsadida eslatib o'tadi. Masalan, Tulixonning Hirotga yurishi to'g'risidagi ma'lumotlarda ham "naql qilishlaricha" jumlasini bilan boshlangan ma'lumotni keltiradi. "Naql qilishlaricha, Mavlono Sharafuddin xatib Chig'irton va yana o'n besh nafardan bo'lak tirik jon qolmagan" [11; 175], – deb yozadi. Bundan ko'rinadiki, tarixiy asarlarda "naql" axborot va xabar yetkazish maqsadida keltirilgan. Shu bois muallif og'zaki eshitgan yoki biror manbada o'qigan ma'lumotlarini voqealar bayoniga qistirib o'tgan. Yoki Misr mamlakati zikrida "naql qilishlaricha, Bandqadar hukmronligi davrida xos kishilaridan ikki-uch kishini Rum taraflariga josus qilib yubordi va ehtiyotkorlik o'sha mamlakatning tevarak-atrofini aylanib chiqib, Misrga qaytib bordi" [11; 245]. Mazkur o'rinda muallif "naql" deganda og'zaki eshitgan hikoyani nazarda tutgan ko'rinadi. Ma'lumotlarni to'ldirish uchun shunchaki eslab o'tadi. Muallif zamonida "naql" so'zi hikoya, ma'lumot, xabar kabi semantik ma'nolarni ifodalagani sezilib turibdi.

Asarda Kebakxon podshohligining zikrida keltirilgan naql e'tiborga molik. "Ul (Kebakxon – M.A.) maqtovg'a sazovor xondan shunday nodir xabarlarini naql qiladilarki, bir kuni bir to'da xos xodimlari bilan otga minib ziyoratga chiqdi. Sahroda sayr qilardi. Qazilgan bir chuqurda odam suyaklariga ko'zi tushdi-da, shu yerda turib qoldi. Biroz ularni kuzatib, mulozimlaridan so'radi: Tushunayapsizmi, bu suyaklar menga nimalar haqida so'zlamog'da? Uning xos odamlari javobda lol qoldilar. So'ng o'zi javob berib, dediki: Mazlumlari kulayotirki, mendan adolat istaydilar va shohona himmat. Buning ma'nosini chaqmoqchi bo'lib, hazora amiriniki, bu sarzamin unga taalluqdor edi, suyaklar ahvolini tahqiq qilishni va u yerda ular uchun ko'p xususiyatga ega ekanligini nazarda tutib, topshirdi. Sardor ularning yurti bo'lgan qishloqchani surishtirib bildiki, o'sha sanadan uch yil oldin Xurosondan karvon kelayotib, o'sha yerga yetganda, shu yerlik jamoa ularni o'ldirgan, mollarini talaganlar. O'sha mollarning ba'zisi ularning qo'llarida saqlanib qolgan. Bu voqealar bo'lib o'tgach, qahramon Adolatxon (Kebakxon – M.A.) barcha mollarni va xuniylarni aniqlashga farmon berib, Xuroson valiysiga odam jo'natdi. Unga surishtirib, o'ldirilganlarning vorislarini topib, ularni bo'lgan voqeadan xabardor qilishni topshirdi. Adolatli shoh dargohiga kelganlaridan keyin mollarini xuntalablarga topshirdilar" [11; 315–316]. Naql qilingan hikoya oxirida she'r berilgan. "To'rt ulus tarixi" asarining boshqa tarixiy manbalardan farqli jihati shundaki, har bir voqelik tasviri nasriy va nazmiy usulda bayon etiladi. Mazkur naqlda ham

xissa-xulosa ikki misra she'rda tasvirlangan.

Naql ibratli hodisa, axloq normalarini bahs uslubida yoritadi. Tasvirlanayotgan voqeada tarixiy shaxsning komilligi, ma'naviyati, xulq-atvori boshqalarga o'rnak sifatida talqin etiladi. Ezgu qarashlar va g'oyalar asarning o'zagini tashkil qiladi. A.Husayniy "Badoyi' us-sanoyi'" asarida naqlning ibratli odobni targ'ib etish uslubi haqidagi ta'rifni keltiradi: "Naql uldurkim, o'zga bironing ma'nosin olur va o'zgacha bir libosda zohir qilur" [6; 268]. Naql aytish o'rniga ko'ra farq qiladi. U xohlagan paytda emas, o'rni kelganda, zarurat tug'ilganda hikoya qilinadi, aniqrog'i, naql yuz bergan hodisaga munosabat bildirib, voqea sababini izohlash, tushuntirish, o'git chiqarish, o'rnak qilib ko'rsatish maqsadi paydo bo'lgandagina aytiladi.

Naql va masal bir-biriga yaqin janrlar. Har ikkalasi ham majozga asoslanadi. Biroq personajlar talqiniga ko'ra farqlanadi. Tarixiy asarlarda keltirilgan naql va masallarda majozga asoslanish xususiyati deyarli uchramaydi. Shu nuqtai nazardan aytish mumkinki, tarixiy asarlarda bayon etilgan naql va masal janriga oid syujetlarda majoziy obrazlarga murojaat yo'qolib borgan. Naql va maqol yuz bergan voqea sababini aniqlab falsafiy xulosa chiqaradi, nasihatimiz niyat, g'oyalarni ilgari suradi. Bunday o'xshashlik maqolning hayotiy voqealar sintezi yoki naql zaminidan unib chiqqanligini tasdiqlaydi. Maqol ibratli yoki salbiy hodisani yaxlit fikr, ixcham, obrazli iboralarda lo'nda ifodalasa, naql epik obrazlar munosabati misolida bayon etadi. Maqol va naql yuritilayotgan bahsning xulosasi yanglig' namoyon bo'ladi. Rivoyat naql emas. Uning syujeti oddiy. Hayotiy va bayon shaklida bo'lib, obraz va voqealar, tarixiy shaxs va tarixiy hodisalardan tashkil topgan, u asosan, axborot vazifasini bajaradi. Naql – boshqa adabiy janr va shakllar ichida ham kelishi mumkin. Masalan, "zikr"da, "hikoyat"da.

Naql ekspozitsiyasi qisqa va sodda bo'lib, voqealarning o'rni, shart-sharoiti, qahramon tabiati vazifasi, raqib personaj haqida ma'lumot beradi. Uning boshlanmasi "*naql qilibdurlarkim*", "*hikoya qilishlaricha*", "*aytishlaricha*" kabi an'anaviy kirish bilan boshlanadi. Voqealar ko'tarinki ruhda davom etadi. Tugun kutilmaganda yuz beradi. U voqealar harakatini boshlovchi vosita, syujetning tarkibiy qismi, nihoyat o'git tashuvchi hodisa sababini aniqlab beradi. Demak, naqlar amaliy ahamiyati bilan ajralib turadi. Ular aql bilan ish yuritish, doimo sezgir, favqulodda hodisalarga tayyor turish, ziyrak hushyorlikni boy bermay, sergak, faol bo'lish, teran fikrlashga da'vat etadi. Sof naqlar majozga asoslanishi, ixcham, soddaligi, voqealarning ishonchli talqini bilan ajralib turadi. Sof naqllarda pand-nasihat

va o'git shartli, ramziy obrazlar nutqida ayon bo'ladi. Bunga "Ikki qarg'a" naqli o'rinli misol bo'ladi. "To'rt ulus tarixi" asarida "Qobil va Hobil" voqealari tasvirlangan o'rinlarda "Ikki qarg'a haqida"gi naql keltirilgan. "Aytishlaricha, bir muddat Hobil murdasini ko'tarib yurgan va uni nima qilishini bilmagan. Bir kuni bir yurtga borgan, qarasa, bir qarg'a boshqa qarg'a bilan jang qilmoqda. Biri o'ldirildi, tirik qolgan qarg'a, o'lik qarg'ani tuproq ostiga berkitdi" [11; 19]. Naqlidagi majoziy obrazning qilgan ishi keyinchalik odam o'lganda yerga ko'mish rasmiga asos bo'ldi. Va bu amalni birinchi joriy qilgan Qobil bo'ldi.

Inson hayoti davomida doimo ruhiy kamolotga erishishga harakat qiladi. Odamzod tafakkuri, aql-zakovati, layoqati bilan dunyoni lol qoldiradi, mo'jizalar yaratadi. Biroq tuban, jirkanch ishlarga ham qo'l uradi. Bu hol turli zamonlarda goh zohiran, goh botiniy holda davom etaveradi. Allomalar, faylasuf donishmandlar bu savolga javob izlaganlar, o'z davri ma'naviy olami miqyosida o'lmas, buyuk durdonalarini meros qoldirganlar. Tarixiy nasrda o'gitlar tarixiy shaxs tilidan aytilib, asarning ma'rifiy ahamiyatini ortishiga xizmat qilgan. Bu hayotiy o'gitlar insonning ma'naviy shakllanishiga, hayoti davomida ezgu amallarni bajarishga safarbar etadi.

"Masal" arabcha so'z bo'lib, o'rnak, maqol, hikoyat ma'nolarini bildiradi. Mumtoz adabiy istilohda masal termini maqol va frazeologizm ma'nolarida ishlatilgan [21;146]. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit-turk" asarida "savlashdi" janri to'g'risida ma'lumot berilgan. A.Abdurahmonov bu adabiy janrni masal janriga tenglashtiradi. *Savlashdi* turkiyda masal aytuvchi ma'nosida ham izohlangan [1; 331]. Tarixiy nasr namunalarida bu janr adabiy jarayon talablari asosida ma'lum o'zgarishlarga uchragan. Janr imkoniyatlari kengaygan, umumlashma xususiyatlarni ifodalagan. "Shajarayi turk"da keltirilgan *masallar* maqol va frazeologik birlikni o'zida ifoda etgan. Abulg'ozil asarida masallardan keltirib, fikrini tasdiqlash va asoslash uchun qo'llaydi. Masalan, asarning muqaddima qismida "Turkning masali turur: "O'ksuk o'z kindigini o'zi kesar" – tegan" [2; 11]. Nazarimizda, Abulg'ozil masal deganda, mumtoz adabiy istilohga ko'ra xalq maqollarini nazarda tutgan. Bu o'sha davrda maqolning masal nomi bilan qo'llanganini ko'rsatadi. Adabiy janrlar takomilida ham aynan shu holatni kuzatish mumkin. Chunki ko'pgina xalqlar og'zaki ijodida maqol va hikmatli so'zlar, hatto, ertaklar ham masal deb atalganini aytib o'tish o'rinlidir. Abulg'ozil asarining birinchi bobida o'zbek masalini keltiradi: "It semirsa, egasin qopar", degan. Muallif Alanchaxon zamonidagi to'qchilikka shukr qilmagan



xalq ichida budparastlikni tasvirlash ma'nosida bu masaldan foydalanilgan. *"Bu kungi ishni tanglag'a solg'an kishining ishi hech bitmas"*. Mazkur maqol Chingizxon tomonidan aytilgan bo'lib, jang qilmaslik uchun otlarining oriqligini bahona qilgan beklariga nasihat qilish mazmunini ifodalaydi. Chingizxonning o'z o'g'illari va yaqinlariga qilgan nasihatlarida ham naql janriga xos belgilar mavjud. Faqat bu majoziy uslubda emas, real voqealarga asoslangan holda xalq og'zaki ijodi an'alarini qo'llash orqali amalga oshiriladi. "Shajarayi turk" da hukamolar, ulamolar va oqsoqollarning ibratli so'zlaridan ham keltirilib, asarning ta'limiy-estetik qimmatini oshirishga erishgan. Masalan, hukamolar tilidan: *"hech nimarsaning martabasi to'qquzdan yuqori bo'lmas, nihoyati to'qquz turur"*, deb aytadi. Bu hikmatli so'z mo'g'ullarning to'qqiz xonidan olinganini asarning boshqa o'rinlarida aytib o'tadi.

Chingizxonning nayman eli ustidan g'alaba qozongani voqealari tasvirida bir necha hikmatli so'z va maqollarni keltiradi. "Burunqi yaxshilar aytib turur: *"O'n darvesh bir palosning yuzina sig'ar. Ikki podshoh yer yuziga sig'mas"*, – teb" [2; 54]. Yoki naymanning beklari tilidan aytilgan o'gitni olaylik. *"Turadin va ev, eldin ayrilib, yot yurtga borib ko'r qidirib yuruguncha o'lgan yaxshi"*. Dushman qo'lida xizmat qilgandan ko'ra jasorat bilan o'limni sharaf deb qabul qilishi ham o'quvchini to'lqinlantirib yuboradi. Yana shunday naqlardan biri Chingizxon tomonidan Sulton Jaloliddinga qarata aytilgan edi. *"Otadin o'g'ul tug'sa, shundoq tug'sun"*. Chingizxon Sultonning ishlariga taxsinlar aytib, mardligi va jasoratiga qoyil qolganini tasvirlash uchun berilgan, mazkur o'git mazmuni shunday. Har bir ota borki, o'zidan shunday mard farzand tug'ilishini istaydi. Asarda "Chingizxonning ba'zi masalalari va biliklari va rasm va qoidalari zikri" [qarang: 2; 80–81]da podshohlarning hukm chiqarishi, har bir kishining qobiliyatiga qarab ish va lavozim berish kerakligi to'g'risidagi o'gitlari asarning ta'limiy-estetik funksiyasini belgilaydi. Asarlarda keltirilgan bilig, o'git va maqollar o'sha davr kishilarining aqliy zakovatini, dunyoqarashini o'zida ifoda etadi. Masal, maqol, hikmat (aforizmlar) va ibora (frazeologik birlik)lar hayotiy tajribalar asosida yaratilgan dono fikrdan iborat bo'lib, voqelikni kuzatish orqali tajriba to'plash va uni obrazli ifodalash hamda u haqda xulosa chiqarish natijasida yaratilgan adabiy shakllardir.

"Berdibekxon bin Jonibekning xon bo'lg'anining zikri"da ixcham syujetga ega bo'lgan bir masal keltirilgan. "Jonibekxon o'lgandan so'ng Tabrizdin Berdibekxon Saroyjiq keldi. U kun aza tutdilar. Azadin so'ng tamom shahzodalar va umarolar Berdibekxonni xon

qildilar. Bu Berdibekxon ajab zolim ta'b, fosiq, qora va badniyat kishi erdi. Aqa va inisin-da, qarindosh urug'in-da hech kishi qo'ymay o'lturdi kim, yurt o'zumga boqiy qolg'ay teb. Bilmadi kim, dunyo foniy turur. Axir podshohlig'i ikki yilg'a yetmay tarixi yetti yuz oltmish ikkida vafot topdi. Sayinxon avlodi Berdibekda munqati' bo'ldi. Holo o'zbek ichinda *masal* turur: "*Nor bo'yni Berdibekda kesildi*". Andin so'ng Jo'chixonning o'zga o'g'illarining avlodi podshohlik qildilar" [2; 109].

Yodgorxonning vafot topgani zikrida Abulxayrxonning o'g'illari va qarindoshlari o'rtasidagi taxt talashuvlar orqali ko'p kishi nobud bo'lgani aytilgan mazkur voqeadan, jarayonni tasvirlash maqsadida muallif qari (oqsoqol) kishilarning so'zlaridan keltirib o'tadi. "*Otang evin yov chopsa, birga chop*" [2; 118], so'zlarini keltirib, Berkaxonning ota yurtiga urush qilganini aytib, to'zg'igan elni yig'ganini ta'kidlaydi.

"Elbarsxonning Urganchni olgani zikri"da burungi o'tgan o'zbeklarning ahli tajribalaridan aytib tururlar: "*To'raning davlatli bo'lurining nishoni ul turur kim navkarga mehribon bo'lur va badavlatining nishonasi qarindoshg'a mehribon bo'lur*" [2; 123]. Elbarsxonning bu so'zlarga amal qilmagani yonidagi beklarining mardakligidandir. U beklarining so'ziga kirib o'z qarindoshlaridan bir nechasini o'ldirdi. Va buning oqibati ham yaxshilikka olib kelmadi.

"Shajarayi turk"da *masal* janri talablariga mos keladigan kichik syujetga ega bir voqea tasvirlangan. Bu aynan *masal* janrining hikoyat mazmunida qo'llanganini isbotlaydi. Voqea Dinmuhammad bilan bog'liq bo'lib, o'zbek xalqi orasida *masalga* aylanganligi aytiladi. "Jovdin ayrilg'andin so'ng tirik tushgan beklarni Dinmuhammad sulton oldiga olib keldilar. Bu falon bek, bu falon bek, teb Sultonning oldindan bir-bir o'tkaza erdilar. Sulton ot ustinda erdi, bir bekni olib keldilar. "Bu kim turur?" – teb so'radi. Olib kelgan kishi "Hofiz qo'ng'irat", – tedi. Anda sulton aytdi. "Sen, Hofiz, hamisha Ubaydxon oldinda Urganch musulmon ermas, kofirdur!" – der ermish sen. Ne sababdin bizni kofir dey turursen?" Anda Hofiz yukundi. Taqi aytdi: "*Ushbu zamon musulmonliq birlan kofirlik ma'lum bo'lur.*" Sulton hech nimarsa temadi. Hofiz qo'ng'iratning bu so'zi shul kundin beri o'zbek orasinda *masal bo'lub qoldi*" [2; 136].

Muallif Qolxon zamonida Urganchda benihoyat arzonchilik bo'lganini aytib, "*Qolxon xon bo'ldi, bir pulg'a bir non bo'ldi*", deb xalq ichidagi gaplarni keltiradi. Poyanda Muhammad sulton haqidagi voqealarda ajoyib hikoyatni berib o'tadi. "Poyanda Muhammad sulton kam aql erdi. Bir kun otasi ko'runushda o'lturg'anda kelib yukun-

di-da aytdi: “Mening yoshim Abul Muhammaddin ulug‘. Ani xon deytururlar va meni sulton. Sizning hukmingiz birlan aytadurlar yo o‘zlari aytamidurlar?”

Xon bu so‘zga ne aytarin bilmay turub erdi. Xonning bir yaxshi begi bor erdi. Turumchi otli, turkmanning Layna (Labna) urug‘indin, benihoyat aqlli kishi erdi. Aning aytg‘an yaxshi so‘zlari ko‘p turur. Ul aytdi: “Muning to‘rasini, podshohim, men berayin?”

Xon aytdi: “Andaq qil!” – tedi. Turumchi Poyanda Muhammad sultong‘a boqib aytdi: “Sizni Xudoyi taolo berganda otangiz sulton erdi. Ukangiz dunyog‘a kelganda otangiz xon erdi. Kishining otasi ne bo‘lsa – o‘g‘li shul bo‘lur. *Sultondan tuqqanni sulton derlar va xondin tuqqanni xon derlar*”, – tedi. Bu so‘z ahmaqg‘a ma‘qul bo‘ldi, qo‘pub ketdi. Ul ham otasidin so‘ng vafot topdi” [2; 142]. Mazkur naqlda ham xalqning eng dono, aqlli va donishmand kishilari to‘g‘risida, ularning yaxshi so‘zlari ibrat uchun kitobxonga yetkaziladi. Asarning badiiy qimmatini oshirishga xizmat qiladi. Naql tarixiy voqea tasviriga singib, tarixiy obrazni jonli xarakterini yaratishga yordam bergan.

“Po‘lod sultonning sifati”da u haqdagi bir qancha naqlar hikoya qilinadi. Abulg‘ozining aytishicha, kichik paytlarida bu podshoh haqida ko‘p naqlar aytilgan. Uning qilgan ishlari xalq ichida unutilib ketmasligi uchun uch-to‘rt naqlni keltirib o‘tishni ma‘qul topadi. Shu naqlardan birida Abdullaxon Urganch ustiga bostirib kelgani aytiladi. Avval kelganida Abdullaxon Yangi ariqdan qaytib ketgan edi. U Yangi ariqda turg‘anda yosh yigitlardan besh yuz kishi jang qilishga choqlanganda, Po‘lod sulton men ham borurman, deb, otlanibdi. Inisi Temur sulton: “Yosh o‘g‘lonlarga qo‘shilib, qayga borursan? – deb, man qilibdi. Barcha beklar ham man etibdi. Qabul qilmay ketibdi. Borib qorovullar bilan urushganda g‘olib kelibdilar. Urush qizigandan keyin ajralib bilmabdi. Yovning ko‘maki ko‘p kelibdi. Qaytib qochibdilar. Po‘lod sulton barchadan oldin qochib kelib, otdin tushub, Xevaqing darvozasida bo‘sag‘asiga minib, qulochini yoyib, “kelur bo‘lsang, kel! Jov shahrga nechuk kirursan emdi?” – deb faryod qilar ekan [2; 147–148]. Mazmun sarlavhada keltirilib, syujet bilan bayon qilinsagina, chinakam naql yuzaga keladi. Po‘lod sulton to‘g‘risidagi naqlar yumoristik xarakter kasb etadi. Muallifning naqlarni keltirishdan maqsadi, asarga ko‘tarinki kayfiyat olib kirish bo‘lgan. Shu orqali tarixiy shaxs to‘g‘risidagi voqealarni ham bayon qilishga erishgan.

Tarixiy shaxslar tilidan aytilgan naql va masallar tarixiy shaxsning donoligi, tadbirkorligi, jasorati va aqliy qobiliyatini ifoda etib, paremik xususiyatini yuzaga chiqaradi. Voqeaning jonli badiiy po-

etik tasvirini yaratishi bilan birga tarixiy jarayondan to'g'ri xulosa chiqarishga chaqiradi. Xalqona tilda ifodalangan masal (maqol)lar xalqimizning ijodiy-badiiy tafakkuri yuksakligini bildiradi.

A.Abdurahmonov "Turkiy xalqlar og'zaki ijodi" kitobida qadimgi turkiy xalqlar adabiyotining janr xususiyatlariga to'xtalib, otalar tomonidan keltirilgan hikmatli so'zlarni "sav" janri sifatida talqin qiladi. Savni adabiy janr sifatidagi o'rnini "Devonu lug'atit-turk", "Qutadg'u bilig" asarlarida keltirilgan misollar bilan dalillaydi.

Bordi qadim donolar,  
Tog'day yuksak bilimda.  
Eslab o'gitlarini  
Quvonch ortar dilimda.

Qadimda donolar va otalar so'zlari, o'gitlarini "sav" janri sifatida atalganligini ta'kidlaydi. "Sav" voqeyiy tasvirga xos bir necha janrning umumlashma nomi, ya'ni hozirgi adabiyotshunoslikdagi epik tur atamasiga yaqin turadi. Devonda "Otalar so'zi" iborasi "sav" atamasi bilan ifodalangan. "Savda shundag' kelir" – otalar so'zi shundoq keladi [1; 168]. "Otalar so'zi" bilik ma'nosiga yaqin turadi, ammo bu ikki atamaning farq qiluvchi xususiyatlari mavjud. Biligda dono fikrlar va hikmatli so'zlarning qisqalik, lo'ndalik, ayni paytda ko'chma ma'no xususiyatlari mujassamlashadi. Biligning ijodkori zamondosh bilga bo'lishi ham mumkin. "Otalar so'zi"ning janr xususiyati o'tmishdan meros bo'lib qolgan pand-nasihat, axloq, odob ifodalangan asarlarni qamrab oladi" [1]. A.Hayitmetov Navoiyning lirik asarlari misolida o'git va hikmatli so'zlarni o'rgangan edi. O'gitlar Navoiyning ma'rifatomuz va mav'izatangiz baytlari orqali ifoda etilganini ko'rsatadi [22; 101].

"Shajarayi turk" asarida hikmatli so'zlar va o'gitlardan ko'plab namunalar uchraydi. Asarda buyuk podshohlar va sarkardalar haqidagi naqlar va ularning o'gitlari – ibratli so'zlaridan parchalar berilgan. Nayman podshohi Tayangxonga O'ngxonning boshini olib kelishadi. Bunday ulug' podshohni va qari kishini nima uchun o'ldirdinglar. Tirik olib kelishi kerakligini aytib, beklarini aybladi. Tayangxon O'ngxonning boshiga kumush qoplatib, eshikka qaratib, taxtining ustiga qo'ydi. Bir kuni O'ngxonning quruq kallasi tili ni og'zidan chiqarib, tebrandi. O'sha kuni uch marta shunday qildi. Buni naymanning qarilari irim bildi. Shu sababli ular Chingizxondan yengilib, qatl etildi [2; 53].

O'git adabiy janr sifatida "Devonu lug'atit-turk" asarida "o'tluk" tarzida keltirilgan. "Qisasi Rabg'uziy"da "foйда" termini ostida o'gitlar berib o'tilgan. "Shajarayi turk"da Abulg'oz tarixi tas-

virlangan sahifalarda uning tilidan bir o'git bayon etiladi. Abulg'ozijang paytida yovning qo'lidan qochishga harakat qilib, o'zini suvga tashlaydi. Oti va kiyimlari bilan suvda suzish qiyin bo'lganida bir qari kishining unga aytgan o'gitini eslab, u aytgan so'zlarga amal qilib, dushman qo'lidan qutulib ketganligini hikoya qilib beradi. "Bir qari kishi bor erdi. Ul aytur erdi, har qachon jovdin qochganda sarupoy birlan ot yoldasangiz, bir oyoqingizni quyushqondin o'tkarib, otning quyruqina qo'yung! Bir oyoqingizni uzangida qo'yung! O'zingiz tik turing! Bir qo'lingiz birlan egarning kin qoshina bosing! Bir qo'lingiz birlan otning jilovini ko'tarib tortib tuting! Mundoq qilmasangiz ot sovutli, sarupoli kishini olib chiqa bilmas, teb" [2; 169]. Oqsoqollar so'zi tarixiy qahramonlarni qiyin vaziyatlardan olib chiqishga yordam beradi. Yuz bergan favqulodda holatlarda o'gitning natijasi o'laroq tarixiy shaxsga to'g'ri yo'l ko'rsatiladi. Bu kitobxon uchun ibrat va o'rnak vazifasini bajaradi.

Abulg'ozij o'z tilidan kichikligida oqsoqollardan eshitgan o'gitini Dinmuhammadning noto'g'ri ishlari bayonida berib o'tadi. Va bundan o'quvchini to'g'ri xulosa chiqarishga chaqiradi: "Biz kichik erkanda oqsoqolliklar aytur erdi: "*Yomon ishni bu ozdur, mundin ne bo'lur*", – teb qilg'uchi bo'lmang. Bizning yurtimiz bir saru echku sabab bo'lub buzulg'an turur" [2; 129]. Tarixiy real voqea zamiridan chiqarilgan xulosa – o'git janri orqali ifoda etiladi. Mana shu jihat o'gitning paremik xususiyatga egaligini ko'rsatadi.

Naql, masal (maqol), o'git va hikmat janrlari tarixiy asarlarda uch asosiy paremik xususiyati bilan ahamiyatlidir. Bular: ko'pchilikning hayotiy tajribasidan kelib chiqib to'plangan dono fikrdan iboratligi; umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan favqulodda dono fikrlarning obrazli ifoda etilishi; bu tipdagi asarlarning ixcham, nisbatan barqaror kristal shaklga ega bo'lishi. Shu jihatlar biz tahlilga tortgan asarlarda to'la namoyon bo'lgan. Tarixiy shaxslar tilidan aytilgan ibratli so'zlar tarixiy voqealarning xissa-xulosasi sifatida xalqimizning donishmandligi, zakovatini o'zida aks ettirgan.

O'zbek xalq naqlari ibratli axloq normalarini targ'ib qilish, belgilashda, yomon illatni inkor etishda timsoliy obrazlarga asoslanishi, sifatlash, o'xshatish, istiora kabi badiiy tasvir vositalariga tayanishi bilan ajralib turadi. Ta'kidlaganimizdek, adabiy-tarixiy asarlarda tarixiy voqealarni bayon qilishda an'anaviy ravishda epik va lirik turning kichik janrlaridan samarali foydalanib kelingan. Shunday kichik janrlardan biri *hikmat* janridir. Hikmat janrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri ta'limiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi.

Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida 13 nafar hakimlar haqida ma’lumot beradi. Ma’lumot berish jarayonida ularning hikmatlaridan eng mashhur, xalq tilida e’tirof etilganlaridan namunalar keltiradi. Asarning “Hakimlar zikri” deb nomlangan ikkinchi qismida ma’lumotlarni Luqmoni hakimdan boshlaydi. Navoiy Luqmoni hakimning aksar el nabiy hisoblashini inobatga olib, anbiyolar qismida ham qayd etganini e’tirof etadi. Luqmoni hakimning barcha yukni tortdim, lekin burchdan og’irroq yuk ko’rmasdim, barcha lazzatdan totdim, biroq ofiyatdan (sog’lik, tinchlik ma’nosida) chuchukroq sharbat totmaganligini ta’kidlab o’tadi. Luqmoni hakimdan so’radilar: “Ne nimadurkim, foydasi borcha xaloyiqqa teyar? Dedikim, yomonlarning yo’qligi”. Navoiy Luqmoni hakimni uzoq umr ko’rganligini ikki misra she’r bilan ta’riflab o’tadi.

Yoshing Luqmondin ar xud bo’lmasa kam,  
Chu borg’ungdur borur damdur hamul dam [3; 598].

Fisoqurs hakim Luqmoni hakimning shogirdi. U Gushtosb zamonida yashagan. Musiqiy ilmning asoschisi. Musiqa ilmi bo’yicha undan oldin kim shug’ullangani ma’lum emasligini qayd etadi. Soz ham uning ixtirosi ekanligini ta’kidlaydi. Va yana ikki misra she’r keltiradi:

Andaki so’zi safar o’ldi anga,  
Sozlari navhagar o’ldi anga [5; 598].

Navoiy shu tarzda hakimlar to’g’risida qisqa-qisqa ma’lumotlar berib, bu ma’lumotlarni kichik she’riy parchalar bilan quvvatlantiradi. Lirik chekinish she’riy parchalar tarixiy shaxs (hakim) lar haqidagi ma’lumotlarga badiiy tus berish bilan birga, o’quvchiga estetik ta’sir ko’rsatish vazifasini bajaradi. She’riy parchalar har bir hakim haqidagi ma’lumotda mavjud. Asardagi barcha she’rlarning muallifi Navoiyning o’zidir. Keltirilgan hikmatlarning har biriga she’riy yo’l bilan ta’rif beradi. Bu ta’riflar hikmat mazmuni bilan hamohang bo’lib, asarning badiiy qimmatini boyitgan.

Hikmat janri Rabg’uziy qissalari tarkibida ham uchraydi. Navoiyning hikmat va kichik she’rlardan foydalanishi o’ziga xos. Uning hikmatlari aynan hakimlar faoliyati bilan chambarchas bog’liq. Ba’zi asarlarda mualliflar hikmatlardan badiiy tasvir vositasi sifatida foydalansa, Navoiy hakimlar haqidagi ma’lumotlarni asoslash va boyitishda bu janrdan foydalanadi.

N. Rahmonovning ta’kidlashicha, “Rabg’uziy hikmatga o’z asarida alohida urg’u beradi va hikmatni qissa janrining kaliti sifatida talqin qiladi – qissadagi ma’lum bir voqeaning sabab va natijasini ochish, uning mohiyatini kitobxoniga yetkazish uchun hikmat kelti-

radi [16; 250]. Navoiyning hikmatlarni keltirishi tarixiy shaxslarning sifatlarini uyg'unlashtirish, hakimlarning alomati haqida so'z yuritish bilan bog'liq. Bu jihat Rabg'uziyda ham kuzatiladi. Masalan, Luqmoni hakim hikmatlarini Muhammad a.s. hayotiga bog'laydi.

Navoiy keltirgan hikmatlar shakl jihatdan qisqa, mazmunan boy. Hikmatlarning nasriy bayoni va she'riy talqini Navoiyning o'ziga xos yondashuvi hisoblanadi. Navoiydan oldin ham hikmatlar she'riy usulda Ahmad Yassaviy, Sulaymon Baqirg'oniy tomonidan ijodiy ishlangan. Ular ijodidagi she'riy hikmatlarda Olloh, (Tangri) payg'ambarlar, soqiy kabi obrazlar ko'zga tashlanib turadi. "Navoiy hikmatlarni she'riy janr sifatida talqin etmaganining sabablari bor: hikmat, lug'atlarda yozilishicha, tajriba bilan erishiladigan bilim; hamma narsaning eng mukammali, bilimdonlik, donishmandlik, maxfiy sir, aqlu haqiqatga uyg'un keladigan nozik ma'noli qisqa so'z, masal, ashyoning zohiriy va botiniy kayfiyatidan bahs etuvchi ilm; axloq va haqiqatga doir, Haqqa muvofiq, foydali so'zdir. Xuddi shuning uchun ham Yassaviy hikmatlari din asoslaridan, shariat ahkomi va boshqa qator masalalar yoritilgan qomusiy asar [15; 95–96].

"Tarixi anbiyo va hukamo"da Fisoqursning shogirdi "Fusuli Buqrot" asarining muallifi Buqrot hikmatlari mo'tabar ekanligini ta'kidlab, namunalar keltiradi. Jumladan, "...umr qisqadur, ish uzun. Oqil uldurkim bu qisqa umrni bir nimag'a sarf qilg'aykim, zaruratrodur, ya'ni oxirat maslahati va Tengri taolo rizosi" – deya, shu mazmuni she'riy usulda mahorat bilan tasvirlaydi:

Kishi qildi amal Tengrining rizosi bila,  
Haq yetti oxiratin komu muddaosi bila [3; 598].

"...Navoiydek fikr dunyosi keng va mushohada quvvati zabardast shoirning asarda payg'ambarlar va hukamo-donishmandlar to'g'risidagi ma'lumotlarni birga berishi bejiz emas, albatta. Ilm ahlini qadrlab, parvarishlab kelgan Navoiy asarda "anbiyolar" qatorida "hakimlar" bayonini bergan, bu esa adibning ilm ahlini anbiyolar kabi ulug'langanligining isbotidir [12;14]. No'shiravonning vaziri Buzurjmehr so'zlaridan keltirib, yigitlikda ilm kasb qilmoqlik, qariqlikda esa uni sarf etmoqlik yaxshidir, – deydi:

Yigitlig'da yig' ilmning maxzani,  
Qarilig' chog'i xarj qilg'il ani [3; 600].

"Tarixi anbiyo va hukamo" asarida keltirilgan kichik janrlar – hikmat, she'r (masnaviy)lar asardagi tarixiy shaxslar (hakimlar) ning sifatini aniqlash, ularning faoliyatini o'rganish, qolaversa, o'quvchini ma'naviy jihatdan tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Nasriy asarlardagi kichik janrlarni o'rganish – o'sha davr adabiyotida kichik

janrlarga xos xususiyatlarni aniqlash, ularning shakllanish genezisi, taraqqiy etishini ilmiy asoslash imkonini beradi. Shuni ta'kidlash mumkinki, "Tarixi anbiyo va hukamo"da berilgan kichik hikmatlar bir paytning o'zida ham nasriy, ham nazmiy bayon etilishi, Navoiyning bu janrdan ikki usulda foydalanganligini ko'rsatadi.

### **Xulosa**

Kichik nasriy janrning qadimiy ildizlari turkiy qavmlar, xususan, o'zbeklarning burungi urug'-ajdodlari, dunyoqarashi, marosim, urf-odat, e'tiqodlariga munosabatidan boshlangan. Har bir nasriy asarga asos solgan dastlabki real voqelik, sub'ektiv hodisalar, islomgacha yuz bergan mifologiya, marosim, ijtimoiy-iqtisodiy, oilaviy-maishiy munosabat kabi tarixiy haqiqatning poetik transformasiyasi alohida ahamiyat kasb etgan. Aytish mumkinki, poetik munosabatga ob'ekt bo'lgan ibtidoiy ideal hodisalar turli xil syujet yaratuvchi motivlar shaklida tashkil topgan. Hikmatlarga oddiy badiiy asar sifatida emas, Qur'on, hadisi sharif va tasavvuf g'oyalarini targ'ib etuvchi muqaddas asar sifatida qaraganlar. Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, hikmatlarning ilohiy xususiyatga ega ekanligi haqida "Devoni hikmat"da ham ko'p bor ta'kidlanadi, hikmatlar "Xudoyimning so'zi" deyiladi [14; 67]. Hikmatlar turkiy tilda so'zlashadigan qavmlar uchun asosiy targ'ibot vositasi bo'lgan. Demak, bu janrning o'ziga xos belgilaridan biri ilohiylik xususiyatidir. Hikmat janrining bu kabi jihatlarini ilmiy o'rganish adabiyotshunoslikning muhim vazifalaridandir.

Yozma nasriy asarlarning sinkretik xarakterga ega bo'lgan namunalarini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Bu narsa janrlararo munosabat masalasini tekshirish obyektini qilib olish zarurligini ko'rsatadi. Bu ish, avvalo, u yoki bu janrning tafovutlanishi, o'ziga xos xususiyati va aniq chegarasini oydinlashtiradi. Qolaversa, har bir janrning tashkil topib shakllanishida, ikkinchi bir janrning ta'sirini tadqiq etish o'zaro munosabat doirasini aniqlaydi, janrlar taqdirini belgilaydi. Hikmat alohida janr sifatida qadimiy bo'lib, juda keng tarqalgan. Tarixiy nasrda uning ta'limiy, paremik-estetik nuqtalari ahamiyatlidir. Shuning uchun tarixiy nasrdagi hikmatlarni to'plash, tarixi va taqdirini o'rganish janriy belgilari, badiiylik darajasi, o'ziga xos tasvir vositalarini aniqlash zarurligini taqozo etadi. Xullas, mazkur turga oid janrlarning har birini alohida tadqiq etish nasriy asarning noma'lum tomonlarini belgilash, ular haqida to'liq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.



### **Adabiyotlar**

- Абдурахмонов, А. 2006. *Туркий халқлар оғзаки ижоди*. Энг қадимдан исломгача бўлган давр. Самарқанд.
- Абулғозий Баҳодирхон. 1990. *Шажарайи турк*. Тошкент: Чўлпон.
- Алишер Навоий. 2013. *Тарихи анбиё ва ҳукамо*. ТА. 10 жилдлик. 8 жилд. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.
- Азербайджанско-русский словарь*. 1965. Москва.
- Арабско-русский словарь*. 1957. Москва.
- Атоуллоҳ Ҳусайний. 1981. *Бадойиъ ус-санойиъ*. Тошкент.
- Бахтин М. *Паремия*. [www.wikipedia.org/wiki](http://www.wikipedia.org/wiki).
- Гафаров, М.Н. 1974. *Персидско-русский словарь*. Ташкент. Том 2.
- Ҳайитметов, А. 1997. *Адабий меросимиз уфқлари*. Тошкент: Ўқитувчи.
- Имомов, К. 2008. *Ўзбек халқ насри поэтикаси*. Тошкент: Фан.
- Киргизско-русский словарь*. 1965. Москва.
- Мирзо Улуғбек. 1993. *Тўрт улус тарихи*. Тошкент: Чўлпон.
- Нодирхон Ҳасан. 2012. *Яссавийликка доир манбалар ва "Девони ҳикмат"*. Тошкент: Академнашр.
- Носиров, О., Жамолов, С., Зиёвиддинов, М. 1979. *Ўзбек классик шеърояти жанрлари*. Ўқув қўлланма. Тошкент: Ўқитувчи.
- Пардаева, И. 2018. *Алишер Навоий тарихий асарларининг бадиияти*. Ф.ф.ф.д. (PhD) дисс. автореф. Самарқанд.
- Персидско-русский словарь*. 1970. Москва.
- Рафиддинов, С., Маннопов, И. 2018. "Ўзбек мумтоз адабиётида ҳикматнавислик анъанаси". *ФарДУ ахборотномаси* 2: 67. Фарғона.
- Раҳмонов, Н. 2016. *Ўзбек адабиётини даврлаштириш масалалари*. Тошкент: Mumtoz so'z.
- Rahmonov, N. 2017. *O'zbek adabiyoti tarixi*. O'quv qo'llanma. Toshkent: Sano-standart.
- Раҳмонова, З. 2019. "Адабий тур муаммоси". *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*, 21.
- Саримсоқов, Б. 1993. "Паремик кечинма табиати". *Ўзбек тили ва адабиёти* 5-6: 23-27.
- Саримсоқов, Б. 2002. "Тўртинчи адабий тур". *Ўзбекистон адабиёти ва санъати*, 28 июнь, 4.
- Таджикское-русский словарь*. 1954. Москва.
- Темирова, М. 2016. *Ўзбек ва қирғиз фолклорида мақоллар муштараклиги*. Тошкент.
- Тилавов, Б.Т. 1967. *Поэтика таджикских народных пословиц и поговорок*. Москва.

## Ideological and Artistic Properties of Paremic Genres

(on the example of historical and prose works)

Marguba Abdullaeva<sup>1</sup>

### Abstract

The article analyzes the paremic genres found in historical and prose works - proverbs, sayings, parables, and various forms of parables. Questions such as the transition of genres of folklore into written literature, changes in it, and the development of genres are studied. The article describes the ideological and artistic features of proverbs found in Mirzo Ulugbek's "History of the Four Nations" ("Ulusi arba'i Chingizy") and "Shadzharai Turk" by Abulgazi Bakhodir Khan. On a scientific basis, the author's skillful use of folk tales and wise sayings is given. It is proved that folk teachings are connected with the activities of historical figures, and proverbs are told in the language of historical heroes. The ideological and artistic features and the educational value of paroemias of a preaching nature are revealed. In the genres characteristic of the paremic type, such features as the predominance of mental cognition based on many years of life experience of the people were revealed. The article comments on research on the topic and conducts a comparative analysis.

**Key words:** *paremology, proverbs, sayings, wisdom, advice, parables, wise sayings, "History of four nations", "Shajarayi Turk", analysis, idea, artistic skill, educational value.*

### References

- Abdurahmonov, A. 2006. *Turkiy xalqlar og'zaki ijodi*. Eng qadimdan islomgacha bo'lgan davr. Samarqand.
- Abulg'oziy Bahodirxon. 1990. *Shajarayi turk*. Toshkent: Cho'lpon.
- Alisher Navoiy. 2013. *Tarixi anbiyo va hukamo*. TA. 10 jildlik. 8 jild. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
- Azerbaydjansko-russkiy slovar*. 1965. Moskva.
- Arabsko-russkiy slovar*. 1957. Moskva.
- Atulloh Husayniy. 1981. *Badoyi' us-sanoyi'*. Toshkent.
- Baxtin M. *Paremiya*. [www.wikipedia.org/wiki](http://www.wikipedia.org/wiki).
- Gafarov, M.N. 1974. *Persidsko-russkiy slovar*. Tashkent. Tom 2.
- Hayitmetov, A. 1997. *Adabiy merosimiz ufqlari*. Toshkent: O'qituvchi.

---

<sup>1</sup>Marguba D. Abdullaeva – Doctor of Philology (DSc), Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi.

**E-mail:** margubaabdullayeva507@gmail.com

**ORCID ID:** 0000-0003-2088-6040

**For citation:** Abdullaeva, D. M. 2022. "Ideological and Artistic Properties of Paremic Genres", *Uzbekistan: Language and Culture* 2: 71-87.

- Imomov, K. 2008. *O'zbek xalq nasri poetikasi*. Toshkent: Fan.
- Kirgizsko-russkiy slovar*. 1965. Moskva.
- Mirzo Ulug'bek. 1993. *To'rt ulus tarixi*. Toshkent: Cho'lpon.
- Nodirxon Hasan. 2012. *Yassaviylikka doir manbalar va "Devoni hikmat"*. Toshkent: Akademyashr.
- Nosirov, O., Jamolov, S., Ziyoviddinov, M. 1979. *O'zbek klassik she'riyati janrlari*. O'quv qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi.
- Pardaeva, I. 2018. *Alisher Navoiy tarixiy asarlarining badiiyati*. F.f.f.d. (PhD) diss. avtoref. Samarqand.
- Persidsko-russkiy slovar*. 1970. Moskva.
- Rafiddinov, S., Mannopov, I. 2018. "O'zbek mumtoz adabiyotida hikmatnavislik an'anasi". *FarDU axborotnomasi* 2: 67. Farg'ona.
- Rahmonov, N. 2016. *O'zbek adabiyotini davrlashtirish masalalari*. Toshkent: Mumtoz so'z.
- Rahmonov, N. 2017. *O'zbek adabiyoti tarixi*. O'quv qo'llanma. Toshkent: Sano-standart.
- Rahmonova, Z. 2019. "Adabiy tur muammosi". *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, 21.
- Sarimsoqov, B. 1993. "Paremik kechinma tabiati". *O'zbek tili va adabiyoti* 5-6: 23-27.
- Sarimsoqov, B. 2002. "To'rtinchi adabiy tur". *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*, 28 iyun, 4.
- Tadjikskoe-russkiy slovar*. 1954. Moskva.
- Temirova, M. 2016. *O'zbek va qirg'iz folklorida maqollar mushtarakligi*. Toshkent.
- Tilavov, B.T. 1967. *Poetika tadjikskix narodnix poslovis i pogovorok*. Moskva.